

“ENG YAXSHI KORPORATIV LOGOTIP”

ichki tanlovi to‘g‘risida

NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom “O‘zbekiston MET” AJ (keyingi o‘rinlarda — Jamiyat) rasmiy logotipini ishlab chiqish bo‘yicha “ENG YAXSHI KORPORATIV LOGOTIP” ichki tanlovini (keyingi o‘rinlarda - Tanlov) o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.2. Tanlov Jamiyatning zamonaviy korporativ imijini shakllantirish, vizual identifikatsiyasini yangilash hamda xodimlarning ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi.

1.3. Tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash maqsadida Jamiyat Boshqaruv raisining buyrug‘i bilan Tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) tuziladi.

1.4. Komissiya tarkibi Jamiyatning mas‘ul rahbarlari va mutaxassislaridan iborat to‘q sondagi a‘zolaridan shakllantiriladi.

1.5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, Jamiyatning barcha xodimlari uchun teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

2. Tanlov ishtirokchilariga va ijodiy ishlarga qo‘yiladigan talablar

2.1. Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar:

2.1.1. tanlovda Jamiyatning Markaziy apparati, barcha filiallari va tarkibiy tuzilmalarining xodimlari ishtirok etishlari mumkin;

2.1.2. ishtirokchilar tanlovda yakka tartibda yoki jamoa (ijodiy guruh) bo‘lib qatnashishlari taqiqlanmaydi;

2.1.3. Tanlov komissiyasi a‘zolarining tanlovda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.2. Logotip mazmuni va dizayniga qo‘yiladigan talablar:

2.2.1. logotipda albatta barcha harflari bosh xarflar bilan yozilgan “**NEGU**” (National Electric Grid of Uzbekistan) abbreviaturasi bo‘lishi shart. Ushbu yozuv kompozitsiyaning markaziy qismida yoki uning ajralmas elementi sifatida ifodalanishi lozim;

2.2.2. logotip Jamiyat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini (yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari orqali energiya transportirovkasi, barqarorlik, tizimlilik va mamlakat energetika xavfsizligi) vizual tarzda aks ettirishi kerak;

2.2.3. Taqdim etilayotgan loyiha muallifning shaxsiy ijodiy mahsuli bo‘lishi shart. Boshqa tashkilotlarning (jumladan, xorijiy energetika kompaniyalarining) logotiplaridan nusxa ko‘chirish yoki ularni takrorlash taqiqlanadi.

2.3. Texnik talablar:

2.3.1. tanlov ishlari elektron shaklda, vektorli formatlarda va yuqori sifatli rastrli formatda taqdim etilishi lozim;

2.3.2. logotip kichraytirilganda (masalan, blanka burchagida yoki vizitkada) o‘zining aniqligini yo‘qotmasligi va barcha elementlari o‘qiladigan bo‘lishi kerak;

2.3.3. logotip rangli (Jamiyat ruhiga mos bo‘lgan ko‘k, sariq, kulrang va h.k.) hamda oq-qora (monoxrom) variantlarda taqdim etilishi shart;

2.3.4. har bir loyihaga logotipning ma‘nosi, tanlangan ranglar va shakllarning mantiqiy asosi bayon etilgan qisqacha (1 varaqdan oshmagan) tushuntirish xati ilova qilinadi.

2.4. Tanlovga ijodiy ishlarni taqdim etish orqali muallif ushbu ish boshqa shaxslarning intellektual mulk huquqlarini buzmasligiga kafolat beradi.

Tanlovga yuborilgan materiallar qaytarib berilmaydi va ulardan Jamiyat tomonidan tanlov jarayonini yoritish maqsadida foydalanilishi mumkin.

3. Tanlovni o‘tkazish bosqichlari va muddatlari

3.1. Tanlov Jamiyatning tegishli buyrug‘i imzolangan kundan boshlab ochiq deb e‘lon qilinadi.

Ishtirokchilardan ijodiy ishlarni (logotip loyihalarini) qabul qilish muddati - tanlov e‘lon qilingan sanadan boshlab 10 (o‘n) kalendar kuni etib belgilanadi.

Tanlovga oid ma‘lumotlar va e‘lon Jamiyatning rasmiy veb-saytida, ichki korporativ portalida hamda Telegram kanallarida joylashtiriladi.

3.2. Tanlov ishlari belgilangan muddat ichida Tanlov komissiyasi kotibiga quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

3.2.1. Jamiyatning ichki tarmog‘idagi maxsus manzilga yoki rasmiy elektron pochtaga yuborish orqali;

3.2.2. A4 formatidagi rangli chop etilgan variantda (mazkur Nizomning 1-ilovasida ko‘rsatilgan shakldagi ariza va tushuntirish xati bilan birga).

Muddatidan kechiktirib yuborilgan yoki Nizom talablariga javob bermaydigan ishlar ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

3.3. Tanlov ikki bosqichda o‘tkaziladi:

I-bosqich (Texnik saralash) - Tanlov komissiyasi kotibi kelib tushgan ishlarning Nizom talablariga (abbreviatura mavjudligi, format to‘g‘riligi va h.k.) mosligini tekshiradi. Talablarga javob bergan ishlar kodlashtiriladi (anonimlikni ta‘minlash uchun).

II-bosqich (Yakuniy baholash) - Tanlov komissiyasi a‘zolari 5 (besh) ish kuni ichida saralab olingan ishlarni baholash mezonlari asosida ko‘rib chiqadilar va Umumiy baholash varaqasini to‘ldiradilar (mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq).

3.4. Eng yuqori ball to‘plagan loyiha Tanlov komissiyasining yakuniy Bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

Tanlov natijalari (g‘olibning ismi va tasdiqlangan logotip) baholash yakunlanganidan so‘ng 3 ish kuni ichida Jamiyat xodimlariga e‘lon qilinadi.

3.5. G‘olib aniqlangandan so‘ng, 5 (besh) ish kuni ichida Muallif va Jamiyat o‘rtasida mualliflik huquqlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnoma imzolanadi (mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq).

Shartnoma asosida mukofot puli to‘langach, Jamiyatning mas‘ul tarkibiy bo‘linmasi logotipni Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ariza topshiradi.

4. Tanlov ishlarini baholash mezonlari

4.1. Komissiya a'zolari taqdim etilgan har bir logotip loyihasini quyidagi 4 ta asosiy mezon asosida, 1 balldan 10 ballgacha bo'lgan shkala bo'yicha baholaydilar (maksimal ball - **40**):

4.1.1. Kreativlik va originallik (10 ballgacha):

- Dizaynning yangiligi va o'ziga xosligi;
- Boshqa mahalliy yoki xalqaro kompaniyalarning brendlari takrorlamasligi;
- Ijodiy yondashuv va g'oyaning noyobligi.

4.1.2. Mazmuniy muvofiqlik va identifikatsiya (10 ballgacha):

- Logotipning Jamiyat faoliyat turi (elektr energiyasi transportirovkasi) bilan mantiqiy bog'liqligi;

- Energetika sohasining ruhini (quvvat, tarmoq, yorug'lik, barqarorlik) ifodalay olishi;

- "NEGU" abbreviaturasining vizual jihatdan muvaffaqiyatli joylashtirilganligi.

4.1.3. Texnik universallik va qo'llanish qulayligi (10 ballgacha):

- Logotipning turli yuzalarda (qog'oz, mato, metall, shisha va h.k.) sifatli aks etishi;

- Vizual elementlarning o'ta murakkab emasligi va kichraytirilganda (masalan, vizitka yoki blankada) detallarining saqlanib qolishi;

- Rangli va oq-qora formatlarda birdek samarali ko'rinishi.

4.1.4. Estetik jozibadorlik va zamonaviylik (10 ballgacha):

- Ranglar mutanosibligi va shriftlarning to'g'ri tanlanganligi;

- Zamonaviy dizayn trendlariga mosligi;

- Ko'rish uchun qulayligi va iste'molchida (hamkorlarda) ijobiy taassurot qoldirishi.

4.2. Har bir komissiya a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtirilib, Umumiy baholash varaqasiga (Vedomost) kiritiladi.

4.3. Eng yuqori umumiy ball to'plagan loyiha Tanlov g'olibi deb topiladi. Agar bir nechta loyihalar teng ball to'plasa, Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

5. G'oliblarni mukofotlash

5.1. Tanlov komissiyasining yakuniy qaroriga asosan eng yuqori ball to'plagan va g'olib deb topilgan loyiha muallifi (yoki ijodiy jamoasi) **5 000 000 (besh million)** so'm miqdorida bir yo'la beriladigan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Agar g'olib sifatida ijodiy jamoa (bir necha xodim) aniqlansa, mukofot puli jamoa a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi yoki jamoa rahbari tomonidan belgilangan mutanosiblikda to'lanadi.

5.2. Tanlov komissiyasining tavsiyasiga ko'ra, kuchli uchlikka kirgan (2 va 3-o'rin egalari) yoki alohida ijodiy yondashuvi bilan ajralib turgan ishtirokchilar Jamiyatning esdalik sovg'alari va faxriy yorliqlari bilan rag'batlantirilishi mumkin.

5.3. Mukofot puli g'olib bilan mualliflik huquqlarini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan va tegishli buyruq chiqarilganidan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida xodimning bank plastik kartasiga o'tkazib beriladi.

Belgilangan mukofot pulidan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda daromad solig'i ushlab qolinadi.

5.4. Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi Jamiyatning navbatdagi yig'ilishida yoki bayram tadbirlari doirasida rahbariyat tomonidan tantanali ravishda amalga oshiriladi.

G'olib bo'lgan logotip va uning muallifi haqidagi ma'lumot Jamiyatning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

6. Mualliflik va mutlaq huquqlarning o'tish tartibi

6.1. Tanlovda g'olib deb topilgan loyiha muallifi (yoki ijodiy jamoasi) ushbu intellektual mulk obyektining (logotip va firma uslubi elementlarining) haqiqiy muallifi deb e'tirof etiladi.

6.2. G'olib deb topilgan loyihaga nisbatan barcha mutlaq egalik huquqlari (foydalanish, ko'paytirish, tarqatish, namoyish etish, qayta ishlash va tijorat maqsadlarida qo'llash) Nizomning 5-bandida ko'rsatilgan mukofot puli to'langan vaqtdan boshlab to'liq va muddatsiz ravishda "O'zbekiston MET" AJ ixtiyoriga o'tadi.

Muallif va Jamiyat o'rtasida mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risida ikki tomonlama shartnoma imzolanadi.

6.3. Jamiyat tasdiqlangan logotipni o'z ixtiyoriga ko'ra:

- rasmiy blankalar, muhrlar va vizitkalarda;
- bino va inshootlarning peshtoqlarida, transport vositalarida, podstansiyalarda va hokazo;
- ijtimoiy tarmoqlar, veb-sayt va reklama materiallarida;
- suvenir va korporativ sovg'alarda cheklovlarisiz ishlatish huquqiga ega.

Jamiyat logotipga muallifning rozilgisiz o'zgartirishlar kiritish, uni takomillashtirish yoki ranglar palitrasini o'zgartirish huquqini o'z ichida saqlab qoladi.

6.4. Muallif tanlovga taqdim etilgan loyiha boshqa shaxslarning mualliflik huquqlarini buzmasligiga, plagiat emasligiga va ilgari boshqa tashkilotlarga sotilmaganligiga kafolat beradi.

Mutlaq huquqlar Jamiyatga o'tgandan so'ng, Muallif ushbu logotipdan (yoki uning asosiy elementlaridan) boshqa loyihalarda yoki uchinchi shaxslar manfaati uchun foydalanish huquqiga ega emas.

6.5. Tasdiqlangan logotipni tovar belgisi sifatida Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" DMda Jamiyat nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq barcha harakatlar va xarajatlar Jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Muallif zarurat tug'ilganda ro'yxatdan o'tkazish jarayoni uchun talab qilinadigan qo'shimcha texnik hujjatlarni taqdim etishda ko'maklashishga majbur.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Nizom Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va tanlov yakunlanib, g'olib bilan hisob-kitob qilingunga qadar amal qiladi.

7.2. Tanlov jarayonida yuzaga kelgan zaruriyatga qarab, Jamiyat rahbariyati Nizom shartlariga (muddatlar, mukofot miqdori va h.k.) o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Bu haqda ishtirokchilar qo'shimcha ravishda xabardor qilinadi.

7.3. Agar tanlovga taqdim etilgan loyihalarning birortasi belgilangan talablarga va Jamiyatning korporativ imijiga mos kelmasa, Tanlov komissiyasi tanlovni «*o'tkazilmagan*» deb topish yoki g'olibni aniqlamasdan yakunlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunday holatda tanlov qayta e'lon qilinishi mumkin.

7.4. Tanlovni o'tkazish, baholash va g'olibni aniqlash jarayoni bilan bog'liq barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

Muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.

7.5. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar va ijodiy ishlarning loyihalari tanlov yakuniga qadar uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi (jamoatchilikka e'lon qilish bundan mustasno).

**“ENG YAXSHI KORPORATIV LOGOTIP”
tanlovida ishtirok etish uchun
ARIZA
(NAMUNA)**

**“O‘zbekiston MET” AJ Tanlov
komissiyasi raisiga**

_____ dan
(tarkibiy tuzilma nomi va lavozimi)
(xodimning F.I.Sh.)

ARIZA

Men, ushbu arizani taqdim etish orqali Jamiyatning rasmiy logotipini ishlab chiqish bo‘yicha o‘tkazilayotgan ichki tanlovda ishtirok etish istagimni bildiraman.

Tanlovga o‘zim tomonimdan ishlab chiqilgan ijodiy ishimi va quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etaman:

1. Logotip loyihasi (rangli va oq-qora shaklda).
2. Logotip konsepsiyasining qisqacha ta’rifi (tushuntirish xati).

Men ushbu arizam bilan quyidagilarni tasdiqlayman:

Taqdim etilayotgan logotip loyihasi shaxsan men tomonimdan yaratilgan va boshqa shaxslarning mualliflik huquqlarini buzmaydi;

Tanlov Nizomi shartlari bilan to‘liq tanishdim va ularga e’tirozim yo‘q;

Agar mening loyiham g‘olib deb topilsa, belgilangan mukofot puli to‘langanidan so‘ng, mazkur logotipga bo‘lgan barcha mutlaq egalik va mualliflik huquqlarini (foydalanish, o‘zgartirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va h.k.) to‘liq va muddatsiz ravishda “O‘zbekiston MET” AJ ixtiyoriga o‘tkazilishiga rozilik beraman.

Bog‘lanish uchun telefon: _____

Elektron pochta: _____

Imzo: ____

Sana: “__” __ 2026-yil

SHARTNOMA

(intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqlarni
boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risida)

Toshkent shahri _____-son “____” _____ 2026-yil

Bundan buyon “**Muallif**” deb yuritiluvchi fuqaro
_____, bir tomondan va

“**O‘zbekiston MET**” AJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv
raisi A.Nazirov bundan buyon “**Huquq egasi**” deb yuritiluvchi ikkinchi tomondan,
mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Muallif Jamiyat tomonidan o‘tkazilgan “Eng yaxshi korporativ logotip”
tanlovi g‘olibi sifatida o‘zi yaratgan “**NEGU**” logotipi va firma uslubi elementlariga
(keyingi o‘rinlarda - Intellektual mulk obyekti) bo‘lgan barcha mutlaq huquqlarini
Jamiyatga to‘liq va muddatsiz ravishda o‘tkazadi.

1.2. Mazkur shartnomaga asosan huquqlarni o‘tkazish O‘zbekiston
Respublikasi Fuqarolik kodeksi va “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va
tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq amalga
oshiriladi.

2. Taraflarning huquq va majburiyatlari

2.1. Muallif tasdiqlaydiki:

- intellektual mulk obyekti uning shaxsiy ijodiy mehnati natijasida yaratilgan
va uchinchi shaxslarning huquqlari bilan yuklanmagan;

ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab mazkur logotipdan o‘z nomidan
yoki boshqa shaxslar foydasiga foydalanmaydi.

2.2. Jamiyat majburiyatlari:

- tanlov Nizomida belgilangan miqdordagi pul mukofotini Muallifga to‘lab
berish;

- logotipni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va undan o‘z faoliyatida erkin
foydalanish.

3. Hisob-kitob qilish tartibi

3.1. Mazkur shartnomaga asosan huquqlarni o‘tkazganligi uchun Jamiyat
Muallifga **5 000 000 (besh million) so‘m** miqdorida pul mukofoti to‘laydi.

3.2. Pul mablag‘lari Muallifning bank plastik kartasiga 5 ish kuni ichida
o‘tkazib beriladi.

4. Huquqlarning o‘tishi

4.1. Intellektual mulk obyektiga bo‘lgan mutlaq huquqlar Muallifga pul
mukofoti to‘liq to‘langan va Dalolatnoma imzolangan vaqtdan boshlab Jamiyatga
o‘tgan hisoblanadi.

4.2. Huquq egasi logotipni o'zgartirish, qayta ishlash, boshqa ranglarda qo'llash va uning asosida yangi dizayn elementlarini yaratish huquqiga ega.

5. Yakuniy qoidalar

5.1. Mazkur shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

5.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkalasi ham teng yuridik kuchga ega.

6. Taraflarning rekvizitlari va imzolari

“MUALLIF”

“JAMIYAT”

Pasport:

JShShIR:

“Eng yaxshi korporativ logotip”
ichki tanlovi to‘g‘risidagi
Nizomga 3-ilova

**“O‘zbekiston MET” AJ rasmiy logotipini ishlab chiqish bo‘yicha
“Eng yaxshi korporativ logotip” ichki tanlovi
UMUMIY BAHOLASH VARAQASI**

Toshkent shahri

“__” _____ 2026 yil

t/r	Ishtirokchining F.I.Sh.	A.Nazirov (ball)	...											Jami ball

Komissiya a‘zolarining tasdig‘i:

Komissiya kotibi: